

**YOSHLARDA DESTURUKTIV XULQ ATVORNING  
SHAKLLANISHI VA UNING PSIXOPRAFLIKATSIYASI**

Kayumova Gòzal Narzullayevna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrası öqituvchisi

Toshbayeva Madina Ravshan qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Termiz davlat universiteti amaliy psixologiya yönalish talabasi.

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 12.03.2025

Revised: 13.03.2025

Accepted: 14.03.2025

Ushbu maqolada yoshlarda desturuktiv xulq-atvor xususiyatlarining shakillanishini oldini olish hamda ularga psixologik yordam berish haqida chora va tadbirlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:**

*Yoshlar, sog`lom  
muhit, bola, ruhiy holat,  
alkogolizm, psixologik  
yordam.*

**KIRISH.** Hozirgi globallashuv zamonida ayniqsa yoshlarda turli xil buzg'unchi xatti harakatlar yani biror nasani yo'q qilishga qaratilgan, yovuz öy-fikrlar asosan ichki faoliyatning og'zaki yoki boshqa ko'rinishlari hisoblanadi. Yòq qilish tuchunchasi shaxsning ong hayollarini hamda barcha sohalarini qamrab oladi. Bunday xatti harakatlar shaxsning mavjudlik sifatining yomonlashuviga o'z harakatlariga tanqidiy munosabatning pasayishiga, sodir bo'layotgan narsalarni idrok etish va talqin qilishning kognitiv buzilishiga o'z-o'zini hurmat qilishning esa sezilarli darajada pasayishing buzilishga olib kelishi mumkin.Bu ko'pincha shaxsning mutlaq isolatsiyasiga qadar ijtimoiy moslashuvga olib keladi.Har bir xulq-atvor modeli bolalik davrida shaklanadi.Bir söz bilan aytganda bolalarda shakllanga xulq atvorning nomoyon bòlishi dastlab ota ona tarbiyasida yaqqol ko`zga tashlanadi. Xulq atvor asosan oilada shakllanadi va kamol topadi.Ota –onaning farzandlarga bo'lgan munosabati uning roli ayniqsa farzand hayotida katta ahaniyat kasab

etadi.Farzandning yaxshi xulq atvor egasi bòlishi ota onaning berayotgan tarbiyasi hamda e'tibori bilan bog'liq hisoblanadi. Uning yuksak kamolga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi .Shaxs kamolotining barcha bosqichlarida yani bolaning tug'uguncha va bog'cha yoshidan etiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar shakllana boradi.

Desturuktiv shaxs – bu vayron qiluvchi ongsizlikka tayanib harakat qilvuchi shaxsdir. SHuni aytib o'tishimiz kerakki ,desturuktiv shaxs faoliyatining turlaridan bu o'z- o'ziga buzg'unchi munosabat bo'lib o'z joniga qast qilishni ham o'z ichiga oladi. Insonlarning desturuktiv xulq –atvoring mohiyatini tushinishga L.S.Vigotskiyning "Madaniy va tarixiy yondoshuv" konsepsiyasida quyidagi fikirlar keltirib o'tilgan .U har bir shaxsni biologik yetukligi va madaniy rivojlanishi aniq ajratib turadi degan góyalarni ilgari surgan. Birinchisi shaxsiyatni shaklantirish tug'ma asos bòlib uni albatta e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ikkinchisi ijtimoiylashuv jarayonida shaklangan va rivojlangan shahsiy rivojlanish mazmuni bu har bir insonni o'rabi turgan jamiyatdagi real munosabatlar samarasidir.

Albata ijtimoiylashuv yosh bola desturuktiv xulqiga tasiri juda katta deb hisoblaymiz chunki yosh bolalarning atrofidagi insonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Deviant xulq-atvorning nisbatan keng tarqalgan shakllari quydagilar hisoblanadi :

#### Ichkilikbozlik

Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud:

1.Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish.

2.Alkogolni ko'p iste'mol qilish — spirtli ichimliklarni muntazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p mikdorda (200 ml.dan oshiq).

3.Alkogolizm — spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

Dalillarga murojaat qilinsa, 70 foizga yaqin qotillik, 80-90 foiz bezorilik asosan mastlikda ro'y beradi degan xulosalar aniqlandi.

- 100 gramm aroq ichish kishi jismidagi faol ishlayotgan 7500 to'qimani yo'q qiladi.

- Ichkilikka berilgan insonlarning 25 foizi spirtli ichimlikdan mast paytda o'zini o'ldirishni xayolidan o'tkazadi degan fikrlar ham yòq emas.

100 gramm "ofat suvi" sportchini ikki haftaga "ish"dan chiqaradi.

- 13-14 yoshli o'g'il yoki qiz bolaga beriladigan bir qadah kuchsiz vino ham katta yoshli odamning bir shisha aroq ichgani kabi salbiy ta'sir ko'rsatadi.Spirtli ichimliklar nafaqat yoshi katta insonlarni balkim yoshlarni ham òz domiga tortib kelmoqda. Yoshlarda

desturuktiv xulq atvor turli xil omillar natijasida paydo bo'lishi mumkin. Bunday xulq-atvor, odatda, o'zini yo'q qilishga, boshqalar bilan munosabatlarda nizolarga yoki jamiyatga zarar yetkazishga olib keladi . Bunga ko'plab sabablarni misol keltirishimiz mumkin:

1. Oilaviy muammolar: Yoshlarda destruktiv xulq ko'pincha oiladagi nizolar, ajrimlar, beparvo qarashlar yoki ota-onaning befarqligi sabab bo'ladi.Bolalar bunday vaziyatlarda tashqi muhitdan dòstlar izlashga moyil bòlib,turli xil insonlar davrasiga qoshilib qolishi ham mumkin.Bunday muammolar o'zini anglash va xavfsizlikni izlash hissi bilan bog'liq.

2. O'qishdagi qiyinchiliklar: Maktabda yoki ta'limda muvaffaqiyatsizliklar, ustozlar yoki tengdoshlari bilan bo'lgan nizolar yoshlarni qiyin vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa ularda kuchli g'azab va bezovtalikni keltirib chiqaradi.Agressiv xulq atvorni ham namayon bòlishiga olib kelishi mumkin.

3. Do'stlar va atrof-muhitning salbiy ta'siri: Do'stlar yoki jamoa a'zolarining destruktiv odatlari. Masalan, alkogol, giyohvand moddalar yoki jinoyatchilik.Yoshlarning soğlom muhit tarziga ta'sir qilishi mumkin.

4. Psixologik muammolar: Depressiya, tashvish, empatiya kabi holatlar bolalarda tez tez sodir bòlishi ham kòzda tutiladi.Bu sabablar bolalarda yolgizlik hissini ham uygotishi mumkin. Yosh bolalarda desturuktiv xulqning shakillanishida va bunga qanday qilib amaliy yordam berishimiz mumkin ?

Avvalo buning sababini aniqlashimiz kerak .Ya'ni uning tashqi muhitini ,ota-onasi ,o'qtuvchi,do'stlari bilan munosabati hamda uning ayni payitdagি psixalogik ruhiy holatini bilishimiz kerak bòladi .Bolaning muamolarini yechishga avvalombor uning ota-onasi, o'qtuvchisi, psixolog amaliy yordam berishi kerak.

Har qanday sharoitda ham inson irodali ,o'z oldiga maqsad qøyib shijoat bilan harakatdan to'xtamasligi kerak .Irodasi mustahkam insonlar bunday qiyinchiliklarni yengishga qodir bòladi.Avvalo inson maqsadlariga yetishga o'zini ishontira bilishi hamda özida bu ishonch uchun kuch topa olishi lozim bòladi.

Chunki inson o'zi ishongan narsagagina birovni ishontira oladi.Özida qanchalik ishonch doirasini kengaytirsa,qolgan shaxslarning fikrini ham özgartira oladi. Aslida qobilyatsiz insonlar bòlmaydi faqat berilgan qobilyatlarni rivojlantirmaydigan dangasa insonlar bòladi.Har qanday yovuz illatli góyalar asosan bekorchi insonlardan kelib chiqadi. Insonlar biron bir mashğulot bilan shugullanganda öz ishlari bilan bandi bòlib , yovuz góyalarni öylashga ham vaqt ajrata olishmaydi .

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, vaqtida berilmagan e'tibor va mehr kelajakda turli xil noxush voqealarning yuzaga kelishiga sabab bòlishi mumkin. Tòğri berilgan tarbiya

muvaqqiyatning kaliti ham bòlishi mumkin. Qanchalik kòp bolalarga e'tibor berilsa, shunchalki soğlom muhitning shakllanishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Narzullayevna, K. G. Z., & Qizi, Y. M. N. (2022). NEGATIVIZM DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATI SIFATIDA. Science and innovation, 1(B3), 851-853.
2. Каюмова Г., И Суюнова Д. (2023). РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ И УЧИТЕЛЕЙ В РАСКРЫТИИ СПОСОБНОСТЕЙ РЕБЕНКА. Модели и методы в современной науке, 2(1), 133-135.
3. Нарзуллаевна, Г. К. (2022). Психологический анализ факторов, которые разрушают прочность семьи. Web of Scientist: Международный научно-исследовательский журнал, 3 (6), 1528-1523.